
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Cavol: I va II guruh nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyingi ishlangan vaqt ish stajiga qo'shib hisoblanadimi?

Javob: O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiyata'minti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga pensiya tayinlash tartibini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 2022 yil 26 oktyabrdagi 795 sonli Qonuni talablariga asosan fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 37-moddasining beshinchi qismi «I va II guruh nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyingi ishlangan vaqt ish stajiga qo'shib hisoblanadi»;

hamda 49-moddasi: «I va II guruh nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyin kamida 1 yil ish stajiga ega bo'lsa, fuqaroning arizasi asosida ish staji va ish haqi inobatga olingan holda pensiya har ikki yilda bir marotaba qayta hisoblab chiqiladi.

Bunda pensiyani qayta hisoblash fuqaro pensiya miqdorini qayta hisoblash uchun murojaat qilgan sanadagi ushbu Qonunning 17-moddasida ko'rsatilgan yoshga nisbatan talab qilingan ish stajidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi» talablari bilan to'ldirildi.

I va II guruh nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyingi ishlangan vaqt ish stajiga qo'shib hisoblash tartibi yulga qo'yildi.

O'ktamjon Ergashev - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-03-08 12:08:37